

XALQARO TURIZMDA O‘ZBEKISTON TARIXIY SHAHARLARINING ROLI

Egamnazarova Munisa Nurali qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Turizm fakulteti Turizm va mehmondo‘stlik

yo‘nalishi 24.2-guruhi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20378805>

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekistonning tarixiy shaharlari — Samarqand, Buxoro, Xiva va Shahrisabzning xalqaro turizmdagi o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Ushbu tarixiy shaharlar Buyuk Ipak yo‘li chorrahasida joylashgani sababli qadimdan savdo, madaniyat, ilm-fan va sivilizatsiyalar almashinuvining muhim markazlari bo‘lib kelgan. Maqolada tarixiy-me‘moriy obidalar, YUNESKO Butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan yodgorliklar hamda milliy madaniy merosning xorijiy turistlarni jalb etishdagi roli tahlil qilingan va xalqaro miqyosda O‘zbekiston turizm brendining shakllanishiga xizmat qilayotgani qayd etilgan.

Kalit so‘zlar: Tarixiy, YUNESKO, me‘moriy obidalar, xalqaro turizm, Buyuk Ipak yo‘li, yodgorliklar, sivilizatsiya, iqtisodiy foyda, milliy qadriyatlar, vizasiz rejim

Аннотация: В данной статье освещается роль и значение исторических городов Узбекистана — Самарканд, Бухара, Хива и Шахрисабз в международном туризме. Эти исторические города, расположенные на перекрёстке Великого Шёлкового пути, с древних времён являлись важными центрами торговли, культуры, науки и обмена цивилизациями. В статье проанализированы историко-архитектурные памятники, объекты, включённые в Список всемирного наследия ЮНЕСКО, а также роль национального культурного наследия в привлечении иностранных туристов. Отмечается, что они способствуют формированию туристического бренда Узбекистана на международном уровне.

Ключевые слова: исторический, ЮНЕСКО, архитектурные памятники, международный туризм, Великий Шёлковый путь, памятники, цивилизация, экономическая выгода, национальные ценности, безвизовый режим.

Abstract: This article highlights the role and importance of the historical cities of Uzbekistan — Samarkand, Bukhara, Khiva and Shahrisabz in international tourism. Since these historical cities were located at the crossroads of the Great Silk Road, they have long served as important centers of trade, culture, science, and the exchange of civilizations. The article analyzes historical and architectural monuments, sites included in the World Heritage List of UNESCO, as well as the role of national cultural heritage in attracting foreign tourists. It is noted that these factors contribute to the formation of Uzbekistan’s tourism brand at the international level. The historical cities of Uzbekistan are considered an important factor in enhancing the country’s image in the international tourism market, while their preservation and promotion are regarded as one of the main directions of sustainable tourism development.

Keywords: historical, UNESCO, architectural monuments, international tourism, Great Silk Road, monuments, civilization, economic benefit, national values, visa-free regime.

KIRISH

Bugungi kunda xalqaro turizm jahon iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan sohalaridan biri hisoblanadi. Turizm nafaqat mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga xizmat qiladi, balki

davlatning xalqaro maydondagi nufuzi, madaniyati va tarixiy merosini dunyoga tanitishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, boy tarixiy va madaniy merosga ega davlatlar xalqaro turizm bozorida alohida o‘rin egallaydi. Shu jihatdan, O‘zbekiston Markaziy Osiyoning eng qadimiy sivilizatsiya markazlaridan biri sifatida o‘zining tarixiy shaharlari, me‘moriy obidalar va milliy qadriyatlar bilan xorijiy sayyohlarni o‘ziga jalb qilib kelmoqda.

O‘zbekiston hududida joylashgan Samarqand, Buxoro, Xiva va Shahrisabz kabi tarixiy shaharlar qadimdan Buyuk Ipak yo‘lining muhim nuqtalari bo‘lib xizmat qilgan. Ushbu shaharlar orqali Sharq va G‘arb davlatlari o‘rtasida savdo-sotiq, ilm-fan, madaniyat va san‘at almashinuvi amalga oshirilgan. Natijada bu hududlarda betakror me‘moriy yodgorliklar, masjidlar, madrasalar, maqbaralar va tarixiy majmualar bunyod etilgan. Hozirgi kunda mazkur obidalar nafaqat O‘zbekistonning milliy boyligi, balki butun insoniyatning madaniy merosi sifatida e‘tirof etilmoqda.

ASOSIY QISM

O‘zbekiston turizm sohasida boy madaniy merosi, qadimiy shaharlar va tabiiy go‘zal maskanlari bilan ajralib turadi. Mamlakat so‘nggi yillarda turizmni rivojlantirishga katta e‘tibor qaratmoqda, bu esa xalqaro turizm oqimini sezilarli darajada oshirishga olib keldi. O‘zbekistonga tashrif buyuruvchi xalqaro sayyohlar 2023–2024-yillarda O‘zbekistonga tashrif buyurgan xalqaro sayyohlar soni sezilarli darajada oshgan. Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, 2023-yilda O‘zbekistonga taxminan 6,6–7 million nafar xorijiy turist tashrif buyurgan. 2024-yilda esa bu ko‘rsatkich yanada ortib, 8,2 million nafar xorijiy sayyohni tashkil etgan. Bu 2023-yilga nisbatan qariyb 1,6 millionga ko‘p ekanligi qayd etilgan. Shuningdek, 2030-yilgacha ushbu ko‘rsatkichni 10 millionga yetkazish maqsadi belgilangan.

O‘zbekistonga eng ko‘p turistlar qo‘shni davlatlardan — Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Rossiyadan tashrif buyurgan. Shuningdek, Turkiya, Xitoy, Janubiy Koreya, Germaniya, Fransiya va AQSHdan kelayotgan sayyohlar soni ham ortib bormoqda.

Xalqaro turistlar oqimining oshishiga quyidagi omillar sabab bo‘lmoqda:

1. Tarixiy shaharlarning xalqaro miqyosda keng targ‘ib qilinishi;
2. Vizasis rejim va elektron vizalar joriy etilishi;(2019-yil)
3. Zamonaviy mehmonxonalar va transport infratuzilmasining rivojlanishi;
4. Samarqand, Buxoro, Xiva kabi tarixiy shaharlarga bo‘lgan qiziqishning ortishi;
5. Xalqaro festival va madaniy tadbirlarning tashkil etilishi.

Mutaxassislarning fikricha, O‘zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan islohotlar kelgusida ham xorijiy turistlar sonining yanada oshishiga xizmat qiladi.

Tarixiy shaharlarning xalqaro turizmdagi roli, avvalo, ularning boy tarixiy merosi va noyob me‘morchiligi bilan belgilanadi. YUNESKO Butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan ko‘plab obidalar xorijiy turistlarning qiziqishini yanada oshirmoqda. Shu bilan birga, davlat tomonidan turizm infratuzilmasini rivojlantirish, zamonaviy mehmonxonalar qurish, transport xizmatlarini yaxshilash, vizasis rejimlarni kengaytirish va milliy turizmni targ‘ib qilish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar xalqaro sayyohlar sonining ortishiga xizmat qilmoqda. Tarixiy shaharlar O‘zbekistonning xalqaro turizm salohiyatini oshirishda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ularni asrab-avaylash, xalqaro miqyosda targ‘ib qilish hamda turizm xizmatlari sifatini oshirish orqali mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish imkoniyati kengaymoqda. Shu sababli O‘zbekistonning tarixiy shaharlari va ularning xalqaro turizmdagi o‘rnini o‘rganish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

O‘zbekistonning qadimiy shaharlari – Samarqand, Buxoro, Xiva xalqaro sayyohlar orasida katta qiziqish uyg‘otmoqda. Samarqand va Buxorodagi tarixiy obidalar, jumladan, Registon,

Buxorodagi Ark qal’asi va Xivadagi Ichan-qal’a YUNESKOning Jahon merosi ro’yxatiga kiritilgan. Hozirgi kunda mamlakat bo’ylab 7 ta yirik tarixiy obida va madaniy meros ob’ektlari YUNESKO ro’yxatida joylashgan.

O’zbekistonning eng yirik turistik salohiyatlaridan biri uning boy madaniy va tarixiy merosidir. Hozirda mamlakatda 8000 dan ortiq madaniy va tarixiy obidalar ro’yxatga olingan. Samarqand shahri dunyodagi eng qadimiy shaharlardan biri bo’lib, Amir Temur davrida ilm-fan va madaniyat markaziga aylangan. Shahardagi Registon maydoni, Shohi Zinda majmuasi, Bibixonim masjidi va Go’ri Amir maqbarasi nafaqat o’zining me’moriy uslubi, balki tarixiy ahamiyati bilan ham xorijiy turistlarni o’ziga jalb etadi. Samarqandning “Sharq gavhari” sifatida tanilishi xalqaro turizm rivojiga katta ta’sir ko’rsatmoqda.

Buxoro shahri esa islom madaniyati va qadimiy me’morchilikning yirik markazlaridan biri hisoblanadi. Shaharda joylashgan Ark qal’asi, Poi Kalon majmuasi, Minorai Kalon va Labi Hovuz ansambli asrlar davomida saqlanib kelayotgan noyob obidalarandir. Buxoro “Muzey-shahar” sifatida e’tirof etilib, tarixiy muhitning yaxshi saqlangani sababli turistlar orasida katta qiziqish uyg’otadi. Ayniqsa, diniy va madaniy turizm yo’nalishida Buxoroning o’rni beqiyosdir.

Xiva shahri O’zbekistonning eng qadimiy va betakror tarixiy maskanlaridan biridir. Shaharning ichki qismi — Ichan qal’a ochiq osmon ostidagi muzey sifatida mashhur bo’lib, YUNESKO Butunjahon merosi ro’yxatiga kiritilgan. Xivadagi Kalta Minor minorasi, Muhammad Aminxon madrasasi va Toshhovli saroyi xorijiy sayyohlarning asosiy diqqat markaziga aylangan. Shaharning qadimiy me’moriy qiyofasi va milliy an’analarni o’zida saqlab qolganligi xalqaro turizm rivojida muhim ahamiyatga ega.

Shahrisabz shahri Amir Temurning vatani sifatida tarixda muhim o’rin egallaydi. Bu shahardagi Oqsaroy, Dorut Tilovat va Dorus Saodat majmualari temuriylar davri me’morchiligining noyob namunalaridir. Shahrisabz tarixiy obidaları ham xalqaro turistlarning qiziqishini oshirib, mamlakatning turistik salohiyatini kengaytirishga xizmat qilmoqda. Bundan tashqari, O’zbekiston bo’ylab 100 dan ortiq muzey faoliyat ko’rsatmoqda, jumladan, O’zbekiston Davlat San’at muzeyi, Samarqanddagi Afrosiyob muzeyi, Buxorodagi Ark muzeyi, Xivadagi Ichan-qal’a muzeyi kabi mashhur muzeylar xalqaro mehmonlar uchun qiziqarli yo’nalishlardir.

XULOSA

Tarixiy shaharlar xalqaro turizm orqali mamlakat iqtisodiyotiga ham katta foyda keltiradi. Turizm sohasining rivojlanishi yangi ish o’rinlari yaratish, xizmat ko’rsatish sohasini kengaytirish, milliy hunarmandchilik va savdo faoliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, xorijiy turistlarning tashrifi orqali O’zbekistonning boy madaniyati, urf-odatları va milliy qadriyatları dunyo miqyosida keng targ’ib qilinmoqda.

Shunday qilib, O’zbekistonning tarixiy shaharlari xalqaro turizmning rivojlanishida muhim o’rin tutadi. Ularning boy tarixiy merosi, noyob me’moriy obidaları va qadimiy madaniyati mamlakatning jahon turizm bozoridagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda. Kelgusida tarixiy obidaları asrab-avaylash, ularni restavratsiya qilish va xalqaro miqyosda samarali targ’ib etish orqali O’zbekistonning xalqaro turizm bozoridagi mavqeini yanada mustahkamlash mumkin. Shu sababli tarixiy shaharlarni rivojlantirish va ularning turizm salohiyatidan unumli foydalanish mamlakat taraqqiyotining muhim yo’nalishlaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Abdulmamidovna Y. S. TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLAR //Science and innovation. – 2024. – Т. 3. – №. Special Issue 28. – С. 867- 871.
2. Baxriddinova T. N. TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING XORIJIY TAJRIBASI //Science and innovation. – 2024. – Т. 3. – №. Special Issue 28. – С. 830-833.
3. PF-60-сон 28.01.2022. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida
4. Xulkarbonu Y. et al. THE ROLE AND PLACE OF ECOTOURISM IN THE REGIONAL ECONOMY OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN //Экономика и социум. – 2017. – №. 4 (35). – С. 15-18.